

CODES AND ADDRESS MODES

Ibraimov Temurbek Quanishbay uli

Master's student of UzMU

Abstract: In hermeneutics, codes and address modes are one of the main functions of the text, ensuring the efficiency and comprehensibility of ideas. If we express the general deductive conclusion inductively (individually), we will focus on the following categories.

KODLAR VA ADRES MODUSLAR.

Ibraimov Temurbek Quanishbay uli

UzMU magistratura talabasi

Germeneftikada kodlar va adres moduslar matnning asosiy funksiyalaridan biri bo'lib, fikrlarning tejamkorligi va tushinarlilagini taminlaydi. Umumiy deduktiv xulosani induktiv (yakka tartibda) ifodalaydigan bo'lsak quydagи kategoryalarga to'qtalib o'tamiz.

Tayansh tushunshalar: kod, modus, ijtimoiy kod, interpretativ kod, kontekst, ijtimoiy kontekst, texnologik omillar, adres modus, adres funksiyalar, ekspressiv funksiya, kognativ funksiya, adres konstruksiyasi.

Matnlar bilan ishlaganda undagi ayrim kodlarga, yani belgilarga du'sh kelamiz. Kodlarning matnlarda qo'llanilishidan maqsad fikrlarning stilistik belgilarini aniqlash, so'zlar va asosiysi matn bilan ishlaganda vaqtin tejash nazarda tutiladi. Matnlarda eng oddiy kodlar termin yoki so'z birikmasining bosh harflari bilan berilishi mumkin. Bu asosan internet maqolalari va ilmiy uslubda ko'p ku'zatiladi.

Rasmiy ish yuritish stilida matn boshida fikrlar (gap) aniq va ravon (to'lig'isha) beriladi. Keyinshalik ko'p takrorlanuvshi (taftalogoya) so'z yoki so'z birikmalari kodlanadi. Unda ham terminning dastlabki qo'llanilishida kalit beriladi. Masalan: "maqsadida ikinchi taraf Ortiqov Iskandar Hamidullo o'g'li (keyingi o'rinalarda "qarzdor") bilan shartnomaga tu'zildi. Matn bilan ishlash davomida bizga tu'shinarsiz, yani ko'dlangan so'zlarning kalitini, asil ma'nosini kontekst orqali aniqlashimiz mumkin.

Falsafada kodlar gnoseologiya, germeneftika, formal mantiqning asosiy kategoriylaridan biri hisoblanadi. Formal mantiq til bilan shambarshas bog'liq. Sababi fikr, tushunsha va xulosalar til orqali etkaziladi. Shunday ekan til - tabiiy va yasama (sun'iy) tilga bo'linadi. Yasama til esa aynan kodlar va belgilar bilan bog'liq. Ularga irogliflar, jargonlar yoki Morze alifbosini misol keltirish mumkin.

Kodlarning ijtimoiy makoni va zamoni bo'ladi. Ijtimoiy kodlar matnda kontekstsiz tushinarli bo'lib ko'pinsha ularga kalit (kommentariya) berilmaydi. Matnda qaysidir terminni ijtimoiy makon va zamonga mos jargonlar bilan kodlash mumkin. Ko'pincha ijtimoiy kod badiiy asarlarda, ilmiy maqolalarda ko'rak quroq sifatida foydalilaniladi. U matnning texnologik omillaridan biri hisoblanadi. Tekstual kontekstlarda asosan interpretativ (izohlovshi) kod qo'llaniladi. U matnning aniqligi va tushunarligini taminlaydi.

Matnlarda modus fikrning maqsatga ijobiy yoki salbiy, tanqidiy munosabatini bildiradi. Har bir gap ikki xil nominativ ma'noga ega: taklif va modus. Taklif ma'noni, modus esa munosabatni ifodalaydi. Formal mantiqta tushunsha, fikr va xulosalarda gapning qurulish strukturasining bir elementi sifatida qatnashadi. Endi modusning terminologik tafsifiga qishqasha to'qtalib o'tamiz.

Sharlz Balli birinshi bo'lib bayonotni modus va diktumga bo'lishni taklif qildi va tilshunoslikda modallikni talqin qilishga katta hissa qo'shdi. Balli g'oyasi nutq birligi sifatida gapning lingvistik tuzilishi haqidagi bilimlarni shuqurlashtirishga imkon berdi va adres modus tasnifini ishlab shiqish bilan bog'liq butun yo'nalishga asos soldi. G.A.Zolotov tomonidan bayonning modal ramkasining tasnifi keng tarqalgan va qo'llaniladi. Begonalashtirilgan bilimlar kontseptsiyasiga asoslangan rejimlarning asl tasnifi V. Yatsko tarafidan ishlab shiqilgan¹.

¹ Karang: Яцко В. А. Логико-семантические аспекты понятия отчуждённого знания //Научно-техническая информация. Сеп.2. — 1993. — № 7

Masalan: «Men uning haq ekanini bilaman», «Men uning to‘ g‘ riligidagi ishonaman», «Menimsha, u haqdek tuyuladi» kabi iboralarni hisobga olsak, birinshi holatda taklifning haqiqatiga shubhalanilmaydi. Ikkinshi holda, taklifning haqiqati mantiqiy (fikr uslubi) bilan chiqariladi. Ushinshi gapda taklifning haqiqati so‘roq, ikkilanuvshi manoni beradi. Shunday qilib, gapning ma’nosи faqat nominativ tekislik bilan emas, balki modal yani modusli tekislik bilan ham belgilanadi. Shubhasiz, bu bayonotlar turli vaziyatlarda ishlatalishi mumkin va takliflarning mos kelishiga qaramay, turli kontekstlarni talab qiladi.

Formal mantiqning aksaryat mexanizm va qununyatlarini ifodalaşta modus yoki modal tushinshasi keng qollaniladi. Shu sababli bu bosqishni modal mantiq deyish ham mumkin. Modal mantiq (lotinsha modus — usul, o‘lshov) — standart mantiqiy bog‘lovchilar, o‘zgaruvchilar va predikatlardan tashqari modalliklar (modal operatorlar, boshqa nomlar: modal tushunchalar, modal munosabatlar, modal tariff va taxminlar) mavjud bo‘lgan mantiq.

Modal operatorlar fikrning haqiqatini baholash ushun ishlataladi (kengaytirilgan: vaziyat yoki fikrning haqiqatini baholash). Aytishimiz mumkinki, modal mantiq “shunday qilish kerak”, “shunday bo‘lishi mumkin” va shunga o‘xshash (tor ma’noda “zarurat va imkoniyat mantig‘i” deb ataladi) iboralarning deduktiv xatti-harakatlarini o‘rganadi.² Biroq, “modal mantiq” atamasi shu kabi tushunshalar bilan ishlaydigan boshqa tizimlarga ham tegishli. Modal mantiqlar informatika va ayniqsa falsafada qo’llaniladi, bu erda modallik bilan fikrlar keng tarqalgan va ayni paytda shalkashtiriladi.³

Yuqorida sanab o‘tilgan talablar har qanday modal mantiq ushun zarur deb hisoblanadi va ularning birinshisi aynan shunday ta‘rifga mos keladi. Qolganlari esa modal mantiqning oddiy taklif mantiqiga aylanishiga yo‘l qo‘ymaydi (bunda modal operatorlar yordamida hesh qanday aloqa mavjud emas). Biroq, eng oddiy modal mantiqlardan biri - Kripke mantig‘i bo‘lib, u Saul Kripke tomonidan taklif qilingan, va uning sharafiga “mantiq K” deb nomlangan. Talimot faqat ikkita modal operatorni o‘z ishiga oladi (majburiy “zarur”, ikkinshisi - ixtiyoriy “ehtimol”) va bu operatorlarni adekvat hisobga olish ushun etarlisha asos bo‘ladi.

Modal mantiqdan til falsafasi, gnoseologiya, metafizika va formal semantikada foydalilanildi. Shu bilan birga, modal mantiqning matematik apparati boshqa ko‘plab sohalarda, jumladan virtual o‘yin programmalarida, kompyuter dasturlarni tekshirish, veb-dizayn, to‘plamlar nazariyasi va ijtimoiy epistemologiya ushun foydali ekanligi malum.

Modallik - bu baholash, tasdiqlashning mohiyatini o‘zida aks ettiruvshi matnning bo‘lagi. Vaziyatning mavjudligi yoki yo‘qligi qarab matnda qayd etadigan ishonshli deb izohlanadi. Bunga qo‘srimcha ravishda bunday gapning xususiyatini tavsiflovshi - ya‘ni modalliklarni o‘z ishiga olgan gaplar modal deyiladi. Modalliklar kushiga qarab tartiblangan bo‘lib, unda eng kushli modallik zarur. Undan kiyungi o‘rinda esa zaifroq modallik – zarurlikning yo‘qligini anglatadi, ya‘ni tasdiqlovshi gapning modalligi bo‘ladi. Shu bilan birga eng zaif modallik ham mavjud bo‘lib - bu imkoniyat modalligi hisoblanadi. Kontekstdan tashqari modal tushunshalar sxema bo‘yisha aniqlanadi va ularga matn davomida kodlar qo‘yiladi.

Matnlar bilan ishlashdagi adres moduslar umumiy mazmunda aks ettirilgan ayrim gaplar yoki fikirlar so‘zma so‘z yoki o‘zlashtirilgan ko‘rinishta tashqaridan foydalilanildi. Matnda tezis yoki fikrning arinter snoskasi, yani molimot olingan manba qandaydir kodlar, yo‘nalishli belgilar orqali ko‘rsatilishi mumkun. Bu ko‘pinsha ilimiyl uslub va rasmiy ish yuritish uslubida keng qo’llaniladi. Unda aniq va ravshan manba keltiriladi.

² Qurang: Крылова, О. А., Максимов, Л. Ю., Ширяев В. Н. Современный русский язык: Теоретический курс. Ч. IV. Синтаксис. Пунктуация. — М.: РУДН, 1997. — 256 с

³ Qurang: Арутюнова Н. Д. Типы языковых значений: Оценка. Событие. Факт. М.:Наука, 1988.